e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)

Article / Original paper https://doi.org/10.67227/wjnbjs13

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA EVFEMALASHUVNING LISONIY-KOGNITIV MEXANIZMLARI: QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLIL

Muminova Irodaxon Ergashevna

Guliston davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi.
e-mail: irodamuminova685@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0003-3617-4416

Annotatsiya.

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida evfemalashuvning lisoniy-kognitiv mexanizmlari qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etiladi. Evfemalashuv bevosita nomning oddiy almashtirilishi emas, balki nomlanayotgan konseptning kommunikativ tuzilishini qayta tashkil etish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda evfemik nomning shakllanishida konseptual fokusning o‘zgarishi asosiy kognitiv tamoyil sifatida belgilanadi. Ushbu tamoyil doirasida metafora, metonimiya, semantik umumlashtirish, perifrazalash, terminlashuv va grammatik qayta qurish kabi mexanizmlarning funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek internet-media diskursidan olingan nominativ modellar asosida salbiy yoki kommunikativ jihatdan nomaqbul belgining ikkinchi planga surilishi hamda nisbatan neytral, umumiy yoki institutsional belgining kommunikativ fokusga chiqarilishi ko‘rsatiladi. Qiyosiy tahlil natijasida ikki tilda evfemalashuv mexanizmlarining umumiy kognitiv asosi mavjudligi, biroq ularning lisoniy voqelanish shakllari va funksional yuklamasi struktur-tipologik hamda lingvomadaniy xususiyatlarga ko‘ra farqlanishi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: evfemalashuv, evfemizm, lisoniy-kognitiv mexanizm, konseptual fokus, konseptuallashtirish, metafora, metonimiya, semantik umumlashtirish, perifrazalash, terminlashuv, grammatik qayta qurish, internet-media diskursi, qiyosiy-tipologik tahlil.

ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ЭВФЕМИЗАЦИИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ: СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Муминова Иродахон Эргашевна

Гулистанский государственный университет, независимый исследователь.

Аннотация.

В данной статье проводится сравнительно-типологическое исследование лингвокогнитивных механизмов эвфемизации в английском и узбекском языках. Эвфемизация рассматривается не как простая замена прямого наименования, а как процесс реорганизации коммуникативной структуры обозначаемого концепта. В исследовании изменение концептуального фокуса определяется как основной когнитивный принцип формирования эвфемистического наименования. В рамках данного принципа анализируются функциональные особенности таких механизмов, как метафора, метонимия, семантическое обобщение, перифразирование, терминологизация и грамматическая перестройка. На основе номинативных моделей, извлечённых из англоязычного и узбекоязычного интернет-медиадискурса, показано, каким образом негативный или коммуникативно нежелательный признак отодвигается на второй план, тогда как относительно нейтральный, обобщённый или институциональный признак выдвигается в коммуникативный фокус. В результате сравнительного анализа установлено, что механизмы эвфемизации в обоих языках имеют общую когнитивную основу, однако формы их языковой реализации и функциональная нагрузка различаются в зависимости от структурно-типологических и лингвокультурных особенностей.

Ключевые слова: эвфемизация, эвфемизм, лингвокогнитивный механизм, концептуальный фокус, концептуализация, метафора, метонимия, семантическое обобщение, перифразирование, терминологизация, грамматическая перестройка, интернет-медиадискурс, сравнительно-типологический анализ.

LINGUO-COGNITIVE MECHANISMS OF EUPHEMIZATION IN ENGLISH AND UZBEK: A COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS

Muminova Irodaxon Ergashevna

Gulistan State University, Independent Researcher.

ISSN 3060-5059 (Online)

Abstract.

This article presents a comparative-typological study of the linguo-cognitive mechanisms of euphemization in English and Uzbek. Euphemization is interpreted not as a simple substitution of a direct designation but as a process of reorganizing the communicative structure of the concept being designated. The study identifies a shift in conceptual focus as the principal cognitive mechanism underlying the formation of euphemistic expressions. Within this framework, the functional characteristics of such mechanisms as metaphor, metonymy, semantic generalization, periphrasis, terminologization, and grammatical restructuring are analyzed. Based on nominative models drawn from English and Uzbek online media discourse, the study demonstrates how a negative or communicatively undesirable feature is backgrounded, while a relatively neutral, generalized, or institutional feature is brought into communicative focus. The comparative analysis reveals that euphemization mechanisms in both languages share a common cognitive foundation; however, their linguistic manifestations and functional roles differ according to structural-typological and linguocultural characteristics.

Keywords: euphemization, euphemism, linguo-cognitive mechanism, conceptual focus, conceptualization, metaphor, metonymy, semantic generalization, periphrasis, terminologization, grammatical restructuring, online media discourse, comparative-typological analysis.

Kirish. Evfemalashuvning yuzaga kelishi til egasining mavjud nominativ birliklardan birini tanlashi bilan cheklanmaydi. Bevosita nomlashdan voz kechish jarayonida nomlanayotgan hodisaning qaysi belgisi kommunikativ fokusga chiqarilishi, qaysi xususiyati esa ikkinchi planda qoldirilishi bilan bog‘liq kognitiv tanlov amalga oshadi. Ushbu tanlov natijasida ayni voqelik boshqa konseptual rakursda lisoniy ifodalanadi. Shu jihatdan evfemalashuv lisoniy birlikning shunchaki almashtirilishi emas, balki konseptual mazmunni qayta tashkil etish va uni muayyan nominativ shaklda voqelantirish jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Evfemalashuvning lisoniy-kognitiv mexanizmlarini tadqiq etish til va tafakkur munosabatini o‘rganishga qaratilgan kognitiv tilshunoslikning asosiy nazariy tamoyillari bilan uzviy bog‘liq. Kognitiv yondashuvda lisoniy birlik voqelikning tayyor va obyektiv nusxasini ifodalovchi belgi sifatida emas, balki insonning borliqni idrok etish, kategoriyalash va konseptuallashtirish faoliyati natijasi sifatida talqin qilinadi. Shu sababli ayni obyektiv vaziyatning turli lisoniy shakllarda ifodalanishi faqat nominativ variantlilik hodisasi emas, balki voqelikni turli konseptual rakurslardan taqdim etish imkoniyati bilan izohlanadi.

G. Lakoff va M. Johnson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi metaforani faqat nutqiy bezak yoki uslubiy ko‘chim sifatida talqin qilishdan voz kechib, uni insonning bir konseptual sohani boshqa konseptual soha orqali anglash mexanizmi sifatida tavsifladi [1; 242-b.]. Ularning konsepsiyasida metafora kundalik konseptual tizim bilan bog‘langan bo‘lib, mavhum va murakkab hodisalarni nisbatan tanish tajriba modellari orqali tushunishga xizmat qiladi. Ushbu nazariya evfemik metaforaning mohiyatini ham yangicha izohlash imkonini berdi: nomaqbul hodisa shunchaki chiroyli so‘z bilan almashtirilmaydi, balki boshqa manba sohasi asosida qayta konseptuallashtiriladi.

Kognitiv yondashuv doirasida metonimiya ham oddiy stilistik ko‘chimdan kengroq mexanizm sifatida talqin qilinadi. K.-U. Panther va L. Thornburg bilan bog‘liq kognitiv-pragmatik tadqiqotlarda konseptual metonimiya bir konseptual domen ichidagi komponentlardan birining boshqa komponentga kirish imkonini ta’minlovchi kognitiv operatsiya sifatida o‘rganiladi. Bunday yondashuv metonimiyaning pragmatik xulosa chiqarishdagi rolini ko‘rsatadi [2; 280-b.]. Evfemalashuvda hodisaning o‘zi o‘rniga uning natijasi, vazifasi, institutsional belgisi yoki unga aloqador jarayonning nominativ markazga chiqarilishi aynan metonimik fokus almashinuvi asosida izohlanishi mumkin.

K. Allan va K. Burridgening evfemizm, ortofemizm va disfemizmni umumiy X-phemism doirasida talqin qilishga asoslangan qarashlari evfemiklikning lisoniy birlikka doimiy biriktirilgan semantik belgi emasligini ko‘rsatdi [3; 24-b.]. Muayyan ifodaning evfemik maqomi kontekst, kommunikativ vaziyat va ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Ularning tabu va tilni senzuralashga bag‘ishlangan tadqiqotlarida evfemik tanlov xushmuomalalik va nomaqbul mazmunni kommunikativ jihatdan boshqarish bilan uzviy aloqada ko‘riladi. Mazkur qarash kognitiv mexanizmni kontekstdan ajratilgan holda tahlil qilish mumkin emasligini ko‘rsatadi: ayni konseptual transformatsiya bir vaziyatda evfemik effekt hosil qilishi, boshqa kontekstda esa neytral nom sifatida qabul qilinishi mumkin.

B. Varrenning evfemizm hosil bo‘lishiga doir modeli semantik innovatsiyaning metafora, metonimiya, implikatsiya, umumlashtirish va boshqa mexanizmlar bilan bog‘liqligini tizimlashtirishga xizmat qildi. Mazkur yondashuv evfemik birliklarni faqat mavzuviy guruhlar asosida tavsiflashdan ularning hosil bo‘lish amallarini aniqlashga tomon metodologik siljishni ifodalaydi [4; 128–172-b.]. Biroq B. Varren modelida ajratilgan semantik mexanizmlarni kognitiv tilshunoslik tamoyillari asosida qayta talqin qilish ularning umumiy konseptual asosini aniqlash imkonini beradi. Metafora, metonimiya yoki umumlashtirish tashqi shakli jihatidan turli jarayonlar bo‘lsa-da, evfemistik qo‘llanishda ular konseptual mazmunning kommunikativ fokusini o‘zgartirish xususiyati bilan o‘zaro yaqinlashadi.

Ingliz internet-media diskursida downsizing, restructuring, workforce adjustment singari nominativ modellar iqtisodiy yoki tashkiliy o‘zgarishlarni jarayon freymi asosida taqdim etish imkonini beradi. O‘zbek media tilida

ISSN 3060-5059 (Online)

optimallashtirish, tarkibiy o‘zgarish, shtat birliklarini maqbullashtirish kabi birliklar ham hodisaning individual ijtimoiy oqibatidan ko‘ra institutsional boshqaruv belgisini faollashtiradi. Mazkur birliklar shakliy jihatdan o‘zaro ekvivalent bo‘lmasa-da, ularning kognitiv mexanizmida salbiy natijani kommunikativ fonda qoldirish va jarayon belgisini profillash umumiyligi kuzatiladi.

Evfemalashuvning lisoniy-kognitiv mexanizmlarini izohlashda konseptual metafora alohida ahamiyatga ega. Metaforik konseptuallashtirish bir konseptual sohani boshqa soha birliklari orqali idrok etish va nomlash imkonini beradi. Evfemik metaforada bevosita nomlash bilan bog‘liq salbiy assotsiativ mazmun boshqa manba sohasining konseptual belgilari vositasida qayta tashkil etiladi. Natijada hodisa yo‘qolmaydi, biroq uning idrok modeli o‘zgaradi.

O‘limning ketish, yo‘l, uyqu yoki manzilga yetish konseptlari orqali ifodalanishi turli tillarda faol kuzatiladigan metaforik evfemalashuv modellaridandir. Ingliz tilidagi pass away, depart, go to a better place kabi birliklarda o‘lim mavjudlikning yakuni sifatida emas, balki bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish yoki makonni tark etish freymi orqali konseptuallashtiriladi. O‘zbek tilidagi olamdan o‘tmoq, dunyodan ko‘z yummoq, boqiy dunyoga rihlat qilmoq, oxirat safariga otlanmoq kabi ifodalarda ham o‘limning bevosita biologik belgisi kommunikativ markazdan chiqariladi.

Biroq mazkur umumiy kognitiv model ikki lingvomadaniyatda aynan bir xil konseptual mazmun kasb etmaydi. Ingliz tilidagi ayrim birliklarda ketish va o‘tish umumiy fazoviy metaforaga asoslangan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi boqiy dunyo, oxirat safari, rahmatiga olmoq kabi ifodalar diniy-madaniy konseptlar bilan bevosita bog‘langan. Demak, metaforik evfemalashuvda umumiy kognitiv sxema lingvomadaniy tajriba asosida xususiy konseptual mazmun bilan to‘ldiriladi.

Semantik umumlashtirish evfemistik konseptuallashtirishda salbiy mazmunning aniqlik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi. Muayyan hodisaning konkret belgilarini ifodalovchi birlik o‘rnida semantik qamrovi kengroq nomning qo‘llanishi adresatga mazmunni umumiy shaklda taqdim etadi. Ingliz media tilidagi incident, situation, issue, developments singari birliklar turli salbiy hodisalarni bevosita nomlamasdan ifodalashi mumkin. O‘zbek internet-media matnlarida holat, vaziyat, masala, voqea, ayrim kamchiliklar kabi umumiy semantik birliklarning shunday vazifada qo‘llanishi kuzatiladi.

Ingliz tilidagi people experiencing homelessness, economically disadvantaged groups, people with disabilities kabi qurilmalarda shaxsni muayyan salbiy yoki ijtimoiy jihatdan sezgir belgi orqali to‘liq tavsiflashdan qochish tendensiyasi kuzatiladi. Shaxs va uning holati konseptual jihatdan ajratiladi: inson doimiy kategoriyaning vakili sifatida emas, balki muayyan vaziyat yoki xususiyatga ega subyekt sifatida taqdim etiladi. O‘zbek media diskursidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar, boquvchisini yo‘qotgan oilalar kabi nominativ qurilmalarda ham shaxsni salbiy belgi asosida to‘g‘ridan to‘g‘ri kategoriyalashdan chekinish kuzatiladi.


Ingliz internet-mediasidagi collateral damage, economic contraction, negative growth, enhanced interrogation kabi ifodalar mazmunni institutsional terminologiya vositasida qayta freymlash imkoniyatini ko‘rsatadi. O‘zbek media tilidagi iqtisodiy faollikning pasayishi, salbiy o‘sish ko‘rsatkichi, maxsus choralar, tegishli ta’sir choralari kabi birliklarda ham mavhum va rasmiy nom salbiy hodisaning bevosita ifodasidan semantik masofa hosil qilishi mumkin.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemalashuvning farqli jihatlari faqat leksik-semantik vositalarda emas, balki grammatik strukturada ham namoyon bo‘ladi. Ingliz tilining analitik xususiyati va qat’iy sintaktik tartibi nomlash hamda passiv konstruksiyalar orqali axborotning taqdim etilish usulini o‘zgartirish imkonini beradi. Harakatning otlashgan shaklda ifodalanishi yoki agentning sintaktik strukturadan chiqarilishi hodisani konkret subyekt faoliyatidan ajratib, mavhum jarayon sifatida taqdim etadi.

O‘zbek tilida esa majhul nisbat, shaxsi noma’lum qurilmalar, harakat nomlari va umumlashgan institutsional subyektlar evfemik masofalashtirishga xizmat qilishi mumkin. Kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi, tegishli choralar ko‘rildi, faoliyat qayta ko‘rib chiqildi, lavozimidan ozod etildi kabi qurilmalarda harakat, uning sababi yoki agenti turli darajada kommunikativ fonda qoladi. Mazkur vositalarning evfemik vazifasi grammatik shaklning o‘zidan emas, balki bevosita nomga nisbatan axborot strukturasini qanday o‘zgartirganidan kelib chiqadi.

Mazkur munosabatni quyidagi model orqali umumlashtirish mumkin (qarang: 1-chizma).

ISSN 3060-5059 (Online)



1-chizma. Evfemalashuvning lisoniy-kognitiv shakllanish mexanizmi

Ingliz va o‘zbek tillarining struktur-tipologik farqlari evfemik transformatsiyaning shakliga ta’sir ko‘rsatsa-da, konseptual fokusni boshqarish mexanizmida muayyan umumiylik mavjud. Farq, asosan, qaysi lisoniy vositaning faol tanlanishi va qaysi konseptual belgining lingvomadaniy jihatdan maqbul muqobil sifatida asosiy o‘ringa chiqarilishida namoyon bo‘ladi. Ingliz media diskursida institutsional abstraksiyalash, nomlash va shaxsni kategoriyadan ajratuvchi analitik qurilmalar faol qo‘llaniladi; o‘zbek media diskursida esa rasmiy perifraz nomlar, majhul konstruksiyalar va madaniy-diniy konseptlarga tayanuvchi bilvosita ifodalar muhim o‘rin egallaydi. Keyingi boblarda mazkur farqlar empirik material asosida tekshiriladi va miqdoriy hamda sifat jihatidan asoslanadi.

Evfemalashuvning lisoniy-kognitiv mexanizmlari real diskursda doimo alohida va sof shaklda voqelanmaydi. Bir evfemik nomlashda bir necha kognitiv va lisoniy amal o‘zaro birikishi mumkin. Masalan, salbiy iqtisodiy hodisaning mavhum institutsional termin bilan nomlanishi terminlashuv bilan birga umumlashtirishni ham yuzaga keltiradi. Agar ayni hodisa agentsiz grammatik qurilmada ifodalansa, mazkur mexanizmlarga grammatik jihatdan ikkinchi planga surish ham qo‘shiladi. Natijada evfemik effekt bitta lisoniy vositaning semantik xususiyati sifatida emas, balki bir necha transformatsion amalning kumulyativ ta’siri asosida shakllanadi.

Ingliz va o‘zbek internet-media diskursidagi evfemalashuvni lisoniy-kognitiv jihatdan qiyoslashda uch sathni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish zarur: konseptual amal, lisoniy voqelanish va diskursiv faollashuv. Konseptual amal qaysi belgining ikkinchi planga surilishi va qaysi belgining asosiy planga chiqishini ko‘rsatsa, lisoniy voqelanish mazkur o‘zgarishning metaforik, metonimik, leksik, perifraz, terminologik yoki grammatik vositasini belgilaydi. Diskursiv faollashuv esa tanlangan nomning konkret internet-media kontekstida qanday evfemik qiymat kasb etishini aniqlaydi. Mazkur uch sathning birligi evfemalashuvni tayyor lisoniy birlik sifatida emas, balki konseptual tanlovning diskursda lisoniy voqelanish jarayoni sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Zero, evfemalashuvning lisoniy-kognitiv mohiyati bevosita nomning oddiy almashtirilishida emas, balki nomlanayotgan hodisa konseptual belgilarining kommunikativ iyerarxiyasini qayta tashkil etishda namoyon bo‘ladi. Salbiy belgining ikkinchi planga surilishi va muqobil belgining asosiy o‘ringa chiqishi ingliz hamda o‘zbek tillaridagi turli evfemik mexanizmlarni birlashtiruvchi umumiy kognitiv tamoyil sifatida belgilanadi. Metafora, metonimiya, semantik umumlashtirish, perifraz, terminlashuv va grammatik qayta qurish ushbu tamoyilning turli lisoniy voqelanish shakllaridir. Ularning internet-media diskursidagi faolligi, o‘zaro nisbati va lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish ikki tildagi evfemalashuvning tipologik umumiyligi hamda differensial belgilarini aniqlash uchun asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago; London: University of Chicago Press, 1980. — XIII, 242 p.URL: https://library.aiu.ac.ke/bib/36690.
2. Panther K.-U., Thornburg L. L. (eds.). Metonymy and Pragmatic Inferencing. — Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2003. — XI, 280 p. — (Pragmatics & Beyond New Series; Vol. 113). URL: https://benjamins.com/catalog/pbns.113.
3. Allan K., Burridge K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2006.DOI: https://doi.org/10.1017/CBO9780511617881. cambridge.org
4. Warren B. What Euphemisms Tell Us About the Interpretation of Words // Studia Linguistica. — 1992. — Vol. 46, № 2. — P. 128–172.DOI: https://doi.org/10.1111/j.1467-9582.1992.tb00833.x. onlinelibrary.wiley.com